



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776(E) | SJIF 2023: 6.907

Rahmonova Dilafro'z  
Ahrorovna

*Samarqand tuman  
ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligining  
tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi*

## **MUAMMOGA ASOSLANGAN TA'LIM(PBL) DOIRASIDA CHIZMACHILIK DARSLARINI TASHKIL ETISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

Anotatsiya: Darslarni tashkil etishda mavzuni o'rganish muhimligini bir necha sabablarini topish, real hayotga bog'lash, yangi tajribalar orqali muammolarni hal qilish yo'llarini o'rgatish.

**Kalit so'zlar:** PBL(problem based learning), Misr ehromlari, piramida, slindr, shar  
Ta'lim tizimini rivojlantirishda xorijiy dasturlarni joriy qilish, o'quvchilarni xalqaro talab darajasida bilim olish, tanqidiy fikrash va mustaqil izlanishga o'rgatish bugungi kunda ta'limning asosiy maqsadlaridan biridir.

Joriy yil 22-may kuni Prezident Shavkat Mirziyoev Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi "Maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi tizimini rivojlantirish bo'yicha takliflar" taqdimoti va rejalari bilan tanishdi. "Hozirda mavzularning 70 foizi kundalik hayot bilan bog'lanmagan. Endi fanlarning amaliy mashg'ulotlar ulushi 40 foizdan 60 foizgacha oshiriladi. Bunda mavzular aniq muammoni hal qilish orqali o'rgatiladi, amaliyot darslari esa loyihani bajarish shaklida o'tkaziladi" deb muhikama qilindi[1].

Tadqiqotlarga ko'ra mantiqiy fikrlash ko'nikmasiga ega o'quvchi hayotda ko'proq muvaffaqiyat qozonar ekan. Yangi o'quv dasturlarning maqsadi ham o'quvchilarni kundalik turmushda muammolarni hal qilishga yordam beradigan amaliy bilim va ko'nikmalarni berish, loyiha ishi yaratish va ijodiy fikrlashga o'rgatishdir. Natijada mashg'ulotlar o'quvchilarni muayyan mavzular bo'yicha muammolarni hal qilish qobiliyatlari va bilimlari bilan yondashishlariga qaratilgan.

Muammoga asoslangan ta'lim(PBL)ning maqsadi

Muammoga asoslangan o'qitishning maqsadi o'quvchilarga mavzuni haqiqiy muammo kontekstida o'rganish uchun guruhlarda birgalikda ishlash imkoniyatini berishdir.



Muammoga asoslangan ta'lim PBL(problem based learning) an'anaviy o'qitish usullaridan nimasi bilan farq qiladi?

“Muammolarga asoslangan o'rganish - bu muammoning echimini tushunishga qaratilgan ishlash jarayonining natijasi bo'lgan o'rganish. Muammo o'quv jarayonining birinchi elementidir”.

Berrouz

An'anaviy o'qitish usullarida o'qituvchi odatda asosiy ma'lumot manbai bo'lib, o'quvchilar ma'lumotni eslab qolishlari va takrorlashlari kerak.

Muammoga asoslangan ta'limda o'quvchilar qiziqarli va qiyin savollarga javob beradi yoki tadqiqot, izlanish va tanqidiy fikrlash orqali real muammolarni hal qiladi. Muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish bilimlarni shunchaki o'zlashtirmasdan, ularni real vaziyatlarda qo'llay oladigan, muammolarga yechim sifatida ishlata oladigan o'quvchilarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Muammoga asoslangan ta'lim doirasida chizmachilik darslarini tashkil etish

Sinf: 8

Sana:

Fan: Chizmachilik

Mavzu: Ko'pyoqliklarning yoyilmalari. Piramida

Kerakli jihozlar: taqdimot, chizma, tarqatma materiallar, videorolik, lego

Darsning maqsadi: O'quvchilar jamoa bo'lib ishlaydi, mantiqiy fikr yuritadi, kuzatadi va darsni nima uchun va qanday kuzatish kerak degan savolga javob topadi.

Darsning borishi

**Kalit so'zlar**

O'quv materiallari va bajarilishi kerak bo'lgan ishlar

1-bosqich  
(3 minut)

Salomlashish, mavzu, ochish, guruhlash

O'quvchilar 3 guruhga ajratiladi. Pol Sezanning “Sen tabiatda silindr, shar va konusni ko'rishing kerak” degan fikrini izohlang.

Kirish.

“Bir daqiqa” metodi

O'tgan darsni mustahkamlash

1.Bizni o'rab turgan atrof muhitda slindr shaklini nimalarda uchratishimiz mumkinligini yozing? (eng ko'p topgan guruh rag'batlantiriladi )

2-bosqich  
(3 minut)

Misr ehromlari

O'quvchilarga raqamlar ortida yashiringan tarixiy obida nomini topish aytiladi.

“Decoder” metodi

3-bosqich  
(4 minut)

Rasmlar

Savol:1)Misr ehromlari qanday shaklda ekanligini toping?

Faollashtiruvchi o'yinlar

Topshiriq: Misr ehromlarini guruh a'zolari jamoaviy birlashib shaklini noodatiy tarzda hosil qiling. Bunda qog'ozdan foydalanish ta'qiqlanadi (shaklni hosil qilishda hamma narsadan foydalanish mumkin: qo'llarni birlashtirib, lego bo'laklari, ruchka va qalamlar v.h)

4-bosqich  
(18minut)

Loyihalash

Izoh: o'quvchilar kreativ fikrlaydi, jamoa bo'lib harakat qiladi.

Loyiha ishi

Bunda o'quvchilar listdan piramida yasashni o'rganishadi.



5-bosqich

(10minut)

“O‘nta dalil” metodi

Tarqatma

Har bir guruh belgilangan vaqt davomida mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish, tadqiqot o‘tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishadi (Axborotlarni to‘plash uchun qo‘shimcha manbalar gazeta, jurnal, internetdan foydalanish ham mumkin). Amalga oshirilgan ishlar rejalashtiriladi, tahlil qilinadi, xulosa chiqariladi.

6-bosqich

(7minut)

“Davrlar almashsinlar”

metodi

Uy ishi

Aziz o‘quvchilar biz fazoviy geometrik jismlar haqida ma’lumotga egamiz

Topshiriq: Agar siz 4500 yil oldingi davrga tushib qolganingizda, inshootning shaklini qanday shaklda qurgan bo‘lardingiz va nima uchun? (Jamoaviy kengashib javob beriladi )

Xulosa: O‘quvchi men bu fani nimaga o‘rganishim kerak degan savoliga javob topadi. O‘quvchilar uzoq vaqt davomida loyiha ustida ishlaydi, qiziqarli va qiyin savollarga javob beradi yoki tadqiqot, izlanish va tanqidiy fikrlash orqali real muammolarni hal qiladi. Mavzuni chuqurroq o‘rganadi. Bilimni faqat yodlab olish va yodlash uchungina emas, balki o‘zlari xohlaganlari uchun o‘rganadilar. Loyiha davomida o‘quvchilar va o‘qituvchilar nimani, qanday va nima uchun o‘rganayotgani haqida fikr yuritadilar. O‘quv jarayoniga e’tibor qaratish ishtirokchilarga jarayonni yaxshilash va kelajakdagi loyihalar sifatini yaxshilashga yordam beradi.

O‘qituvchilar loyihani tushunishning asosiy nuqtalarini ko‘rib chiqishni rejalashtirish va ta’minlash uchun davlat standartlaridan foydalanadilar. Bundan tashqari, muammo o‘rganish uchun o‘quvchining yoshiga mos bo‘lishi kerak.

PBL shuningdek, 21-asrda muvaffaqiyat uchun muhim bo‘lgan tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va hamkorlik kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga urg‘u beradi. O‘qituvchi kasbiy rolining o‘zgarishiga ham olib keladi. U standart “bilim estafetasi” dan fasilitator va mutaxassisga aylanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. [www.president.uz](http://www.president.uz)

2. I. Rahmonov, D. Yuldasheva, M. Abdurahmonova. Toshkent “O‘zbekiston-2019”.

3. А.В.Пагорелов Геометрия: Учеб.пособие для 7-11 классов средней школы.

Ташкент 1993

4. [https://t.me/edurtm\\_uz](https://t.me/edurtm_uz)

5. <https://www.storyboardthat.com/ru>

6. <https://skillbox.ru/>